

Klaster Yondashuvi Orqali O'Quvchilarning Badiiy Ijodiy Qobiliyatlarini Rivojlantirish

Utkirova Ma'mura Faxridin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutxassisligi 1-kurs bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada klaster yondashuvi tizimi orqali o'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusini muhokama qiladi. Ma'lumki, klaster yondashuvi, turli sohalar bo'yicha o'quvchilarni birgalikda ishlash va o'rganish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birgalikda, klaster tizimi orqali o'quvchilarning ijodiy va iste'dodlarini rivojlantirishda keng ko'lamli integratsiya metodlarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, strategiya, mexanizm, STEAM, pedagogic amaliyot, tendensiya, kompozitsiya.


Аннотация: В данной статье рассматривается развитие художественно-творческих способностей студентов посредством системы кластерного подхода. Известно, что кластерный подход позволяет студентам разных специальностей работать и учиться вместе. В то же время он обеспечивает широкомасштабные методы интеграции для развития творческих способностей и талантов студентов через кластерную систему.

Ключевые слова: инновационная технология, стратегия, механизм, STEAM, педагогическая практика, тенденция, композиция.

Abstract: This article discusses the development of artistic and creative abilities of students through the cluster approach system. It is known that the cluster approach allows students from different specialties to work and study together. At the same time, it provides large-scale integration methods to develop students' creativity and talents through the cluster system.

Key words: innovative technology, strategy, mechanism, STEAM, pedagogical practice, trend, composition.

Zamonaviy davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar davri kirib keldi. Yangi Davlat ta'lim standartlari qabul qilindi, buning natijasida nafaqat o'quv jarayonining mazmuni o'zgardi, balki ta'lim faolligini oshirish va aqliy faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan ta'lim ma'lumotlarini taqdim etishning yangi shakllari va usullari joriy etildi. Buyuk taraqqiyot tomon rivojlana borayotgan yurtimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida yutibdi. Zamonaviy ta'lim olish uchun ham har bir shaxs oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Chunonchi, ta'lim-tarbiya jarayoni maktab o'quvchilarini har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, milliy g'ururli, chuqur ma'lumotli, ma'naviy va jismoniy barkamolligi uning kelajakda yetuk kadr va mutaxassis bo'lib yetishishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda ta'lim klasterining kirib kelishi bilan ushbu tizim har tomonlama o'z natijasini berib kelmoqda. Zamonaviy ta'limda yangi innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi




klaster yondashuvi asosida bo'lsa o'quvchilardagi ijodkorlik faoliyatining samaradorligiga erishish mumkin.

Klaster usuli yordamida o'quvchilarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samarali strategiya hisoblanadi. Ta'limning klaster usuli o'quvchilarga yuqori ixtisoslashgan yo'nalishlarni tanlash va ijodiy qobiliyatlarini yanada chuqurroq rivojlantirish imkonini beradi. Buning uchun quyidagi mexanizmlarni ko'rib chiqishimiz kerak:

1. Qobiliyatni baholash: o'quvchilarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini baholashdan boshlash zarur. Bir qator testlar, tarqatma materiallar, suhbatlar yoki boshqa baholash usullari qo'llaniladi.
2. Klasterlarni shakllantirish: O'quvchilarni ijodiy qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab guruhlarga ajratiladi. Bu guruhlar tasviriy san'at, haykaltaroshlik, fotografiya, dizayn va boshqa san'at turlarini o'z ichiga olishi mumkin.
3. Individual yondashuv: o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda individual ta'lim rejalari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu ularning badiiy qobiliyatlarini yanada samarali rivojlantirishga yordam beradi.
4. Ixtisoslashtirilgan dasturlar: Har bir klaster uchun maxsus dasturlar va kurslarni ishlab chiqish. Ushbu dasturlar nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mahorat darslari va qo'shma loyihalarni o'z ichiga olishi mumkin.
5. Mentorlik va murabbiylik: o'quvchilarga o'zlari tanlagan soha bo'yicha tajribali rassom va pedagoglar bilan ishlash imkoniyatini berish.
6. Fanlararo loyihalar (STEAM): Klasterlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish va fanlararo loyihalarni amalga oshirish. Bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, yangi birlashtirilgan ixtiro va loyihalarni yaratish imkonini beradi.
7. Hamkorlik: klaster yondashuvida hamkor ta'lim muassasalarni toppish aniqlash va hamjihatlikda loyihalar, darslar va mashg'ulotlar tashkil etish. Bu orqali talaba hamda o'quvchi o'rtasida munosabat shakllanadi. Bu munosabat ijodiy muhit yaratishga zamin bo'ladi.
8. Tadqiqot: o'quvchilarni o'z qiziqishlari bo'yicha kichik tadqiqot olib borishga qiziqtrish va tadqiqot natijalarini nashr etishga ko'maklashish. Bu yangilikka qiziquvchan o'quvchilarni qo'llab quvvatlash bilan belgilanadi.

Klaster yondashuvi talabalarning badiiy iste'dodi va ijodini yanada chuqurroq va tizimli ravishda rivojlantirishga imkon beradi, shuningdek, o'quvchining individual o'sishi va o'zini anglash fikr mulohazalarini namoyon qilish uchun sharoit yaratadi.

Pedagogik amaliyotda bir bolaga qanday qilib yangi ishni boshlashni batafsil tushuntirish kerakligi, boshqalar esa maslahatsiz rasm chizishi mumkinligi, biri esa nima deyishni bilmasa ham qo'lini cho'zishi, boshqasi bila turib jim turishi, ba'zilar tez javob berish tez ta'sirlanishi yoki umuman ma'lumotlarni qabul qilmasligini kuzatishimiz mumkin. Tasviriy san'atda bolalar naturaga qo'yilgan qo'yilmani har xil idrok etadilar va uni boshqacha tahlil qiladilar, har bir o'quvchi turli qobiliyatlarga, turli e'tibor, xotira va tasavvurlarga ega. O'qitishda asosan o'quvchilarni kuchli, o'rtacha va kuchsizlarga bo'lishdan iborat bo'lgan yondashuv emas balki, o'quv



materialini murakkablik darajasiga ko'ra tanlash kerak. Shunda ta'lim olish jarayoni tezlashadi, mavzu to'liq tushiniladi va qabul qilinadi.

O'quvchilarning badiiy mahorati va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini oshirish, go'zallik tuyg'usini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish, badiiy va tasviriy asarlarni tushunish va qadrlash fazilatlarini tarbiyalash uchun o'quv jarayonini qanday tashkil qilish kerak? Ushbu savolning dolzarbligi ham shundaki, badiiy ta'lim sifati va darajasi, o'quvchilarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ushbu masalaning amaliy qismining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Ushbu maqolaning maqsadi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga klaster yondashish orqali badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Tasviriy san'atni o'qitishda klaster orqali yondashuv, bolalar ijodiyotining butun jarayoni, jumladan, nazariy, amaliy va o'quv faoliyati, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish mazmuni, shakllari va usullari o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga qaratiladi. Buning natijasida bilim olishi samaraliroq bo'ladi.

O'qitishdagi dastur materialining mazmuni faqat o'quvchilarning yosh xususiyatlariga e'tibor qaratilmaydi, ularning o'rta maktabda olgan mavjud bilim va ko'nikmalarini hisobga olgan holda tuzilgan bo'lsa, tendentsiya kuchayadi. O'quvchilarning tasviriy faoliyatga bo'lganligi tasviriy san'atni o'qitishda klaster yondashuv samaradorligining ko'rsatkichi yuqori bo'ladi.


Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi muammolarini hal qilish kerak:

- pedagogik nazariya va amaliyotda muammoning holatini o'rganish;
- o'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishning mazmuni va usullarini tavsiflash;
- tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga klaster yondashuvi masalalari bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash tajribasini tavsiflash;
- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv vazifalari majmuasini ishlab chiqish.

Tasviriy san'at ta'lim tizimida pedagogik ta'lim klasteri usuli va o'qitish texnologiyalarini amalga oshirish, o'qituvchining pedagogik ijodkorligini faollashtirish orqali maktabda ijodkorlik muhitini yaratishga sabab bo'ladi. Klaster yondashuvi amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangidan yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Hozirgi kunda pedagogika fani va amaliyotida o'quvchining badiiy ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi yana kun tartibida turibdi. Buning sababi shundaki, birinchidan, ijodiy qobiliyatlar insonning asosiy fazilatlaridan biri, ikkinchidan, agar biz o'quvchini ta'lim subyekti deb e'tirof etsak, unda uning o'quv va ijodiy faoliyatdagi faolligi masalasi bo'lsa boshqa tomondan barcha muammolarni ijodiy hal qilish uchun asos bo'lishi. O'quvchining badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari:

- ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, qiziqish, moyillik;
- tasviriy san'atning o'rganilayotgan jihatlariga o'zgartiruvchi yondashuv;
- faoliyatga tayyorgarlik;



- evristik salohiyat;

Badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilimlar tizimini va texnik hamda texnologik fondni boyitish, yangi muammolarni hal qilish uchun olingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Ta'limga klaster yondashuvi tizimini qurish tamoyillari shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Bolalar bilan muloqot qilish va ishlash jarayonidagi tajribalar shuni ko'rsatdiki, hech bir bola yo'qki, tasviriy san'atga qobiliyati bo'lmagan. Har bir bola ijodkorlik qobiliyatiga ega. Har kim o'ziga xos qobiliyatli, har kim o'zini namoyon qilish va muvaffaqiyatga erishish huquqiga ega. Bizning maqsadimiz qanchalik yaxshi bo'lmasin, biz maktab o'quvchilariga badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllanishiga yordam bermasak, bolaning individual qobiliyatini yo'qotamiz. Shuning uchun ham o'qituvchi nafaqat o'z o'quvchilarining har birini bilishi, eng muhimi, uning individual xususiyatlarini hisobga olishi juda muhimdir.

Buyuk rassom-pedagog P.P.Chistyakov shunday degan edi: "...Sen o'quvchini, uning xarakterini, uning rivojlanishi va tayyorgarligini bilish kerakki, shunga qarab unga to'g'ri yondashishni topish kerak. Bitta o'lcham bilan hammani o'lchay olmaysiz..."

O'quvchining badiiy ijodiy qobiliyatida albatta o'qituvchining o'rni beqiyos. Tasviriy san'at o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'plab afzalliklarga ega. Bu usul o'quvchilarning o'zlarini ifodalash, o'ylash, so'z yoki rasmlar orqali g'oyalarni ifodalash, fikrlarni boshqalarga erkin yetkazish va san'atni o'rganish bilan bog'liqdir. Quydagi usullar bilan tasviriy san'at orqali o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin:


1. Kompozitsiya usullarini o'rganish. O'quvchilarga rangtasvir, grafika va boshqa tasviriy san'at turlarida ishlash uchun kompozitsiya tuzishni o'rgatish.

2. Rassomchilik to'garaklariga jalb etish. O'quvchilarni rassomlik mashg'ulotlar va darslaridan tashqari to'garaklarga qatnashishni ta'minlash. Bu orqali bola san'atni yanda sevishga go'zallik yaratishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirishga yordam beradi.

3. Badiiy asarlar mutolaa qilish. Yangi g'oyalar yaratish uchun albatta badiiy adabiyotni o'rni katta. Bunda tasavvur olami kengayadi va ijodiy yondashuvga sabab bo'ladi.

Tasviriy san'atning foydali texnologiyasi va usullari orqali o'quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning o'zlarini ifodalash, o'ylash va ijod qilishlarini oshirishga yordam bera oladi.


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun eng avvalo turli shart-sharoitlarni yaratish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim olish talablarini aniqlash va ana shu talablar asnosida uning ustuvor yo'nalishlarini belgilash muhimdir. Ta'limga ayniqsa klaster yondashuv asosida o'quvchilardagi badiiy ijodiy qobiliyatlarini tashkil etilishi o'quvchilar faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin yaratadi. O'quvchilar bilim olishdagi poydevor hisoblanar



ekan, yorqin kelajak uchun, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish zarur. Shunday ekan, o'quvchilarda badiiy ijodkorlik va ijodiy faoliyatni rivojlantirish davr talabi o'qituvchining eng oldi maqsadlaridan biri bo'lishini taqzo etmoqda. Bunda o'quvchilarning nafaqat yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, balki ta'lim klasterini samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, unda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, qolaversa oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda badiiy ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk kadr bo'lishiga xizmat qiladi

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. X Э Султанов. (2023). Методика преподавания прикладной графики в художественно-образовательных учреждениях республики Узбекистан. PEDAGOGS Jurnal, 32(2), 4–8
2. X Э Султанов. (2023). Талабалар фаоллаштиришда халқаро ҳамкорликни ривожлантиришнинг таъсири. PEDAGOGS jurnal 34 (3), 73-78
3. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш// научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
4. Бердиев Достон Абдувоитович Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўғаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). TASVIRIY SAN'ATNING FANLARARO ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI. PEDAGOGS Jurnal, 31(1), 142–148.
6. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.
7. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187–193. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>
8. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527
9. Utkirova Mamura Faxridin qizi. (2023). Maktab o'quvchilarini badiiy– ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni. PEDAGOGS Jurnal, 36(1), 127–132
10. Narimanova Shodiya Sadulla qizi. (2023). Tasviriy san'at mashg'ulotlarida integratsiyaga asoslangan ta'limning ahamiyati . PEDAGOGS Jurnal, 36(1), 133–138
11. Бердиев Достон Абдувоитович Кластер ёндашувига асосланган ўқитувчиликнинг талабаларни касбий тайёрлашдаги аҳамияти. “Tasviriy san'at ta'limi uzviyligini



ta'minlashning ustuvir yo'nalishlari: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2023. 32-36.